VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

“PARANJI SIRALARI” ASARIDA MAQOLLAR TALQINI

Solijonova Gulruxsor

Farg’ona davlat universiteti

filologiya fakulteti o’zbek tili yo’nalishi

3-kurs talabasi**,**

Ilmiy rahbar: **J.Sayidolimov**

Annotasiya: Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi" asarida qahramonlar xarakteri va ularning nutqida qo`llangan maqollar orqali obrazlarini i yortishga qaratilgan . Asarda uchraydigan maqollar asar mazmundorligi , fikrni mantiqiy va lo`ndalikni ifodalash orqali ijodkorning mahoratini oshirganligi ko`rsatib o`tilgan. Undagi ijtimoiy holat va personajlarning xatti-harakati bayon etilgan. Maqolada dramaning tahlilini maqollar orqali berishga harakat qilingan.

Maqol xalq ogʻzaki ijodi janri qisqa , loʻnda obrazli va obrazsiz, zarbulmasal, xalq, hikmat , hikmatli soʻz, tanbeh, mashoyixlar soʻzi, hikmatli maqol, donishmand soʻzi kabi nomlar bilan ham yuritiladi . Oʻzida teran mantiqiy tugallangan ma’noli, hikmatli ibora chuqur mazmunli soʻzdir . Maqol ba’zan mazmunni mujassam etgan maqollar go’zal ohang bilan boshlanib, jarangdor sado berib tugallanadi. Maqollar gʻoyatda keng tarqalgan boʻlib, asrlar davomida jonli soʻzlashuv va oʻzaro nutqiy munosabatda tortib yozma adabiyotda ham jumladan , badiiy asarlarda ham oʻz aksini topgan. Xalq maqoli har bir kishi amal qilishi lozim boʻlgan axloqiy hodisalar kodekisidir. Ijodkorlar tomonidan asarlarda qoʻllanayotgan maqollar birgina soʻzning bir necha poetik boʻyoqlari hamda qahramonlar xarakterlarini yoritib berish uchun foydalanishadi. Ijodkorning voqelikka maqol bilan murojat qilishi asar mazmunini badiiyroq, tushunarliroq qiladi. Asarlarda qoʻllanayotgan maqollar orqali ham yozuvchi mahoratini, ham maqollarning badiiy asarlarga ta'sir doirasini koʻrish mumkin. Bu mavzuni yoritishga asos sifatida Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Paranji sirlari" asarini tanladik.Paranji sirlari” klassik va hamisha aktual asar. Qiz bolani tovar deb bilish, uning oʻgʻirlanishi va islovatxonaga tushishi butun dramasi bilan koʻrsatilgan. Yallachi Mastura satang oldida toʻqima mamarozalar hech narsa emas. Mastura “Boʻldi men ishimni tashlayman, Makkaga boraman”, desa, eri kuladi: “Shu harom pullar bilan Makkaga bormoqchimisan?” deb. Masturani va uning eri Mirzaraim qoraning er-xotinlik munosabatlarini ochish jarayonida ularning suhbatlariga e’tibor qaratamiz. Eriga koʻngilsiz boʻlib xilvat topib sevganlari bilan oʻynaganlarni zino ekani, begunohlarni oʻzining nayrang tuzogʻiga ilintirish ham jinoyat ekanini yaxshi bilgan Mastura oxirat gʻamini ham yeb qoʻygan. Bu haqda erining kinoyali qochirimiga Masturani javobini eslash oʻrinli:

“Mirzaraim qora - Gap bundaki, harom-harishdan peshona teri qilib, besh oʻn soʻm toʻplaganki, oxir chogʻimda hajga boraman deb ...

Mastura - Nega harom-harish boʻlar ekan? Sargardonning puli emas bu, aylanay! Doʻppi tikib toʻplaganman, yaxshi yigit. Sizni deb qora boʻlgan bu yuzlarimni baytulloga surkamay oʻlsam, roʻzi qiyomatda qanday bosh koʻtaraman.

Mirzaraim –Men bor-ku, ko’p qo’rqavurma!Er rozi-Xudo rozi , deganlar.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Yozuvchi Mastura xatto to‘y-tamoshalarda yig‘ilgan sargardon-sadaqalarni peshona terining mahsuli emasligini yoritibgina qolmay , Do‘ppi tikib topgan pullarini haj qilishga atab bankka qo‘ygani, Shu yo’llar orqali u jinoyat yo‘liga birdan emas, mana shunday yo`llar bilan kirib qolganini izohlaydi va shu o`rinda erining so`zlariga e`tibor qaratamiz. U jiyonat olamiga , bunday jirkanch ishlarga qo`l urishiga Mirzaraim ham aybi bor. Bu ishlarni qilishga Mirzaraim ham undagan. Yuqoridagi suhbatda Mirzaraim nutqidan keltirilgan maqolda bu masala oydinlashadi. Ya’ni men rozi bo`lsam bo`ldi. Men rozi bo`lsam , Xudo rozi bo`ladi. Sen men aytgan ishlarni qilib , roziligimni olaver , qolgan ishlarga men borman-ku deya yana qayta shunday buzuq ishlarni qilishda davom etishga undaydi. Na shariat , na dindan xabar bo`lmagan bu ikki obraz aslida bu maqol tag zamiradagi ma`noni qanday ekanligini anglashmaydi ham. Eri shunday xarom ishlarga undab , Masturaning ``kasb –korini`` davom ettirsa, undan rozi bo`ladi.Shu bilan esa Xudo roziligini topish mumkin . Aslini olib qaraganda , maqolda ta`kidlangan ma`no umuman o`zgacha talqin etiladi. Qachonki , ayol eri aytgan shariat ahkomlarini bajarsa, Alloh yo`lida uning roziligini topsa , erning roziligi diniy –axloqiy me`yorlar bilan o`lchalsa , diniy qoidalarga to`g`ri kelsa demak , ushbu maqolni o`rinli ishlatsa bo`ladi. Lekin yozuvchi shu maqolni Mirzaraim nutqidan keltirib uning naqadar jirkanch, chalasavod mulla ,johil kimsa ekanligini ochib beradi.

Paranji sirlarining pyesasining tuzoqqa ilingan ayanchli qismatga ega bo`lgan yetakchi qahramoni To‘laxondir. Uning jabru-sitam, aldovlar bilan to‘lib toshgan hayot yo‘li asar oxiri tomon mushkullashib, chigallashib boradi. Asar so`nggida ham uning chigal hayoti qanday yakun qilingani bayon etilmay , ochiq qoladi.Qismat uni ellik uch yoshlik Mamatning o‘ljasiga aylantiradi. Bir farzand ko`rgandan keyin ona yurtiga qaytarishga va’da bergan Mamat To`laxonni majburan boshqa shaharga olib ketadi. To‘laxonning erk , ishq va muhabbat yo‘lidagi istak-orzulari Hamzaning ushbu asarida qay holda yakun topganini anglash mushkul. Uning hayotida ko‘rguliklarning cheki yo‘q. Sevgilisiga yetolmay nomusi barbod etilgan To‘laxanning taqdiri endi boshqa shaharda davom etadi. Lekin qayta-qayta aldov va firblarning qurboni bo`lsa ham ro‘shnolikka erishishdan umidini uzmaydi. To`laxon obrazi asar boshida ham ,asar oxirida ham erkni kulovchi va unga intiluvchi , nomusi toptalishiga qaramay ma`naviy pok obraz timsolida gavdalanadi. Pyesada jabrdiydaning boyning o`g`liga uzatishmoqchi bo`lishgan jarayonida uning xolasi Hayidjon bilan bo`lgan suhbat vaqtida uning bu xislatlari yoritilib , qahramonlar xarakteri ochilib boradi .

…To`laxon : O`tga , suvga solasizmi , ixtiyor sizlarda . Nima bo`lsam , xudodan ko`rdim .

Hayidjon . Xudodan umiding bormi, axir ?

To`laxon. Umidsiz kim ?

Hayitjon . Xudoni buyrug`iga bo`yin egasanmi?

To`laxon. Bo`lmasamchi?

Hayitjon . Bo`pti-da xudoyimning roziligi ota , onaning roziligi-da!

To`laxonning otasi Umrzaqboy va onasi Hojar qizini bir boyning tutqanoq o`gliga berishnoqchi bo`ladi , lekin bunga roiz bo`lmagan To`laxon suygani Rustambek bilan qochib ketmoqchi bo`ladi , afsuski unga taqdir o`ylashga ham qo`rqinchli bo`lgan qismatni tayyorlab qo`ygan bo`ladi. Balki u

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

ota-onasi , xolasi va akasini gapiga quloq solishi kerakmidi-, degan savol tug`iladi o`quvchida . Lekin , ular aytgandek yo`l tutsa, tutqanoq erga majburan tegib, muhabbatidan voz kechishi kerak bo`lardi, agar boyning shu o`g`liga teggan taqdirda ham , fitnachilar uni yana shu qismat domiga tortishi ham turgan gap edi.To`laxonning qismatiga ota- onasi ham befarqligi , boylik , mansab uchishlari, qizning ko`ngliga qaramasliklari, uning qismatidagi eng katta aybdorlardi. Otasi qizining xohishini so`raganda , onasi To`laxonning nomidan sukut - alomati rizo , deya roziligini bildiradi. Ana shu holat To‘laxonning onasi Hojarning o‘tmushdagi ko‘rguliklari va hozirgi hayotini tasvirlashda Hamza hayolini ham alohida band etadi ". Noiloj, lekin eski odatlarga ko‘nikkan Hojar o‘ziga shunday deydi : “Nima qilay, azro‘yi azal irodasi shu ekan. Bo‘lmasa ko‘ra-bilib guldek qizimni kulga tashlayinmi! Or-nomus o‘limdan qattiq. Bitta o‘ldim - kuydim degan mening o‘zim edi. Besh yil, o‘n yil yig‘ladim, oxiri ko‘rmagandek bo‘lib ketdim. Buyam bir kunini ko‘rar. ... Voy qizginamning umri g‘am bilan xazon bo‘ladi-da” deydi. Demak, er - xotinning nazarida farzandlarning o‘z xoxishi, muhabbat, vafo tushunchalari e’tiborsiz, o‘tkinchi, hayoldagi orzular bo‘lib, maqsad boylik obro‘ga erishishdadir. Farzand taqdiri savdoga qo‘yilgan buyumdek gap. Hojar - Qiz deganning hammasiyam shunaqa, yig‘lab bir kun ko‘nikib ketaveradi. Ish qilingki, men ham, siz ham yurtning osh-nonini yeb, siz to‘nini kiygansiz. Men chit-u ro‘molini olganman. Kiroyi to‘y-fotihani loaqal oltidan olishga rozi bo‘ling. Bo‘lmasa, devonaga tashlab qo‘ygan qizim yo‘q ..deb qiz qismatini mol -dunyoga alishishlari o`ta ayanchli holat.

Sevgisidan kecholmagan va Kumushxondek baxtli bo`la olaman deb taqdirini o`zgartirish umidida oiladagilarga qarshi kurashmoqchi bo`ladi. Yuqorida keltirilgan suhbatda u aqlan va ma`naviy jihatdan pok ijobiy qahramon sifatida gavdalanadi. Xolasi unga ota –onaning roziligini olish bu esa xudoning roziligini topish ekanligini tushuntiradi. Bu yerda qo`llangan maqol , ota -onaning rizoligi emas, balki moddiy manfaat ko`zlab qizni shu qismatga ko`ndirish uchundir. Afsuski, bu qismatga ko`nmagan qiz fitnalar qurboni bo`lib , suyganiga ham yetisha olmay , hayotning o`nqir-cho`nqir yo`llarida toptalmagan ko`chasi qolmaydi. Lekin qachondir ona shahriga qaytish maqsadini ko`zlaydi. Bu maqsad ota-ona roziligini olish bo`lsa ne ajab

Hamza Hakimzoda Niyoziyning ushbu asari o‘sha davrdagi ijtimoiy va siyosiy tuzumni yoritar ekan, Masturadek ayollar obrazi orqali paranji ostidagi jirkanch ishlar ochishga qaratilgan . Hamzaning siyosiy-ijtimoiy fikrlashi va uning dunyoqarashi , millat taqdirini o‘ylashi paranjining ichiga berkitilgan sir -sinoatlardek "Paraji siralari "ga berkitilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. Mirzayev , O. Safarov , D.O‘rayeva . O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. Toshkent. "Aloqchi", 2008 .
2. O‘zbek Folklori . T . Mirzayev , Sh .Turdimov, M.Jo‘rayev, J. Eshonqulov, A.Tilavov . Toshkent -2020
3. H. H. Niyoziy Paranji siralaridan bir lavha yoki yallachila ishi. www. ziyouz.com.kutubxonasi
4. Paranji siralari yoxud Xolisxon (To‘laxon). Maqola . Mamlakatxon Jo‘rayeva . Karim Yuldashev.
5. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. *Modern Science and Research*, *2*(6), 1104-1106.
6. Odiljon o‘g‘li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. *IQRO* , *2* (2), 777-785.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

7. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. *Modern Science and Research*, *2*(6), 848-853.
8. Baxtiyorjon o‘g‘li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 38-41
9. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING
10. MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational,
    a. natural and social sciences, 3(3), 1318-1322СЕМИОТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В ЛИРИКЕ АНВАРА ОБИДЖАНА
11. Qahhor Yo'lchiyev - Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023. №1. – С383-387. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xNOt6eMAAAAJ&citation_for_view=xNOt6eMAAAAJ:mVmsd5A6BfQC
12. LIRIK JANR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR.Q Yo'lchiyev - Scientific journal of the Fergana State University, 2022. № 2

WORDLY
KNOWLEDGE